

TONGYULDUZI

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqarib boshlagan

№ 44 (66325)
2001 yil 2 noyabr, juma

Sotuvda erkin narxda

O'Z UYIM,
OLAN TOSHAQIMIJANNATMAKON
Diyor yana
qayda bor?

Dunyoda insondan ulug' zot yo'q. Shudring tomchisida quyosh jilva qilganidek, odam siymosida olam jamolini ko'rgandek bo'laman. Tangri taolo insonni mo'tabar etib, «mening yerdagi xalifam», - degan ekan.

Inson go'zal xislatlar, yaxshi fazilatlar, nurdek pokiza umid-niyatlar bilan komillikka intilib boradi. Teraklarning shiviri-yu suvlarning tebranishlari, gul yuzidagi shabnam-u tabiatning ezma yomg'irlari ham inson qalbiga Vatan muhabbatini soladi. Entikibroq tikilsangiz hayotdagi har bir narsa go'zal. Chunki Vatan muhabbati tilimizda, dilimizda.

Vatan poydevorini mustahkamlash biz yoshlarning birinchi vazifamizdir. Hali oldimizda yangi ishlar, yangi rejalar turibdi. Shularni o'ylar ekanman, qalbim iftixor bilan to'lib-toshadi. Chunki biz istiqboli porloq, kelajagi oydin Mustaqil O'zbekistonning navqiron, zukko, aqlli va barkamol farzandlarimiz. Bizdan, hali Vatanimiz ko'p narsalarni kutishga haqli.

Biz Mustaqil O'zbekistonimizning ko'rar ko'zi, aytar so'zi, yaxshi kunlaridan darak beruvchi yosh ko'ngil egalari. Vatan, ona, farzand deb atalgan muqaddas tuyg'ular insonning ham, jamiyatning ham eng qimmatli qadriyatiga aylangan bir davrda yashamoqdamiz. O'zbekistonimiz bilan faxrlansak arziydi. Bizning jannatmakon yurtimiz yana qayda bor!

Keling, aziz do'stlar, vatandoshlar, shu jannatmakon yurt uchun, dunyo bilan bo'ylashayotgan mustaqil O'zbekistonimiz uchun sodiq farzandlar bo'lib yetishaylik.

Nilufar NIZOMOVA,
Navoiy viloyati,
Navoiy shahridagi
15- maktabning
6- «A» sinf o'quvchisi.



Lilseyim -
Faxrim mening!
Alisher Navoiy nomidagi nafis san'at litseyi
10 YOSHDA!

Muhokama
uchun mavzuEKOLOGLAR
TAYYORLAYDIGAN
OLIYGOH KERAK!

Ma'lumki, so'nggi vaqtlarda matbuot va oynayi jahon orqali juda ko'p marotaba ekologiya va salomatlik, ekologiya va atrof muhitning ifloslanishi kabi mavzularga bag'ishlangan eshittirish va ko'rsatuvlar olib borilmoqda. Chunki, hozirgi kunda ekologiyaning yomonlashuvi, atrof-muhitning ifloslanishi dunyo bo'yicha eng muhim muammo bo'lib qoldi. Bunday muammoning kelib chiqishiga sabab - insonning tabiatga ta'siri kuchayib ketdi. Dorivor o'simliklar, noyob jonivorlar, qushlar qirilib, ko'm-ko'k o'rmonzorlardagi dov-daraxtlardan, bepoyon tog'lardagi qimmatbaho xom-ashyolardan hisobsiz foydalanish, Orol dengizimizning tobora qurib borishini aytmaydismi? Natijada dengiz tubida tabiiy zahar ko'paymoqda, kuchli shamol yordamida ana shu tuzlar atrof muhitga tarqalib, inson salomatligiga jiddiy zarar yetkazmoqda. Bu esa ayniqsa, Orol bo'yi aholisi uchun katta ekologik tahdiddir. Aholi orasida kamqonlik va boshqa kasalliklar kelib chiqmoqda. Bu esa kelajak avlodning jismonan, aqlan rivojlanishiga ta'sir ko'rsatmoqda. Bir so'z bilan aytganda, tabiat o'ziga ko'rsatilgan e'tiborsizlik, loqaydlik sababli insonlardan o'ch olmoqda. Yoshlarimiz jismonan baquvvat, aqlan teran, chuqur tafakkur qila oluvchi va ma'nan barkamol bo'lmoqlari uchun ham ular ongida ekologik madaniyatni oshirish kerak.

O'zbekistonda juda ko'p turli mutaxassislarni tayyorlaydigan oliy o'quv yurtlari mavjud. Ammo maxsus ekologlarni tayyorlaydigan oliy o'quv yurti yo'q. Yurtimizda ana shunday kadrlarni tayyorlaydigan oliy o'quv bilimgoohlari tashkil etilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Chunki, oldimizda turgan ekologik muammolarning yechimini bo'lajak ekologlar hal qilishsa, ekologiya olamida yangiliklar, kashfiyotlar yaratishsa, ajab emas. Zero, o'tgan XX asr «kuchlilar» asri bo'lib, tarixda o'chmas iz qoldirgan bo'lsa, endigi XXI asr «bilimdonlar» asri bo'ladi, deb taxmin qilinishi bejiz emas.

Feruza ISMOILOVA,
TDTU qoshidagi Chilonzor akademik
litseyi III- kurs talabasi.

«Kamolot yoshlar ijtimoiy harakati» homiyligida tashkil etilgan bolalar tashkiloti o'z a'zolariga guvohnoma va «beydjik»larni tantanali topshirishni boshlab yubordilar. Bunga birinchilardan bo'lib Sirg'ali tumanidagi 28ta maktab o'quvchilari musharraf bo'ldi. Shu yili 30 oktyabrda Sirg'ali tuman yong'indan saqlash maktabi madaniyat uyida bo'lib o'tgan tadbir o'quvchilar yodida muhrlanib qolgay. Chunki «Kamolot yoshlar ijtimoiy harakati»ga a'zo bo'lish uchun avvalo bolalar tashkilotining a'zosi bo'lish darkor-da. Shu sababli ham Sirg'alidagi bolalar puxta tayyorgarlik ko'ribdilar. Butun tuman miqyosida tashkilotni yakdillik bilan «Kamalak» deb nomlashibdi. Boshqa

tumanlar istagancha turlicha nom tanlagan. Hatto har bir maktab bolalar tashkilotining nomi, yo'nalishi har xil bo'lishi mumkin.

Yoshlarni birlashtirish, huquqlarini himoya qilish,

xohish-istagini inobatga olib iste'dodlarini namoyon qilishga ko'maklashadigan bolalar tashkilotiga 7 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan o'quvchilar qabul qilinadilar. Madaniyat uyiga har bitta sinfdan «Kamalak» sardorlari kelib, o'z shiorlarini aytishib, tantanali va'da berib, ko'krak nishoni

BO'LJAK "KAMOLOT"CHILAR

«Beydjik»larga ega bo'lishdi. Keyin badiiy qism boshlanib, 284- maktab qoshidagi doira to'garagi a'zolari o'z san'atlarini namoyish etishdi. Shunday ajoyib tantanaga bosh bo'lgan «Kamolot yoshlar ijtimoiy harakati» homiyligidagi shahar bolalar tashkiloti boshlig'i Gulchehra Olimjonova, Sirg'ali tuman bolalar tashkiloti boshlig'i Gulnur Nazarovalar bolalar ko'zidan yog'ilib turgan sevinch nuri, ishonch va g'ururni ko'rib, bo'lajak kamolotchilarning yo'li oydin ekanligini anglashdi.

Muharrama PIRMATOVA.

"KAMALAK"CHILARGA "BEYDJIK"



**USTOZIM NIGORA
XO'JAYEVADAN
MINNATDORMAN**

Menga buvijonim odob-axloq haqida rivoyatlar, ertaklar so'zlab beradilar. Ulardan birini sizning ham e'tiboringizga havola etmoqchiman:

«Qadim zamonda cho'lda qurg'oqchilik avj olibdi. Hatto bardoshli katta bir daraxt ham suvsirab chanqab qolibdi. Daraxtning chanqog'ini qondiradigan inson topilmabdi. Shunda cho'ldan karvon o'tibdi. Unda bir bog'bon bor ekan. Bog'bon daraxtni ko'rib, darhol meshidagi suvni uning tagiga quyibdi. Chanqog'i bosilgan daraxt yanada gurkirab o'sib ketibdi. Bu cho'ldan o'tgan insonlar daraxtning soyasida dam olib ketadigan bo'libdilar».

Buvimning ertaklarini eshitib, bugungi kunning bolalarini ana shu suvga chanqoq daraxtga o'xshatib yuboraman. Biz chanqog'imizni bostirish uchun maktabga borganimizda ustozimizdan yangi narsalarni o'rganib kelishga harakat qilamiz. Har bir fanning kitobini ochsangiz, o'zga bir olamni kashf qilasiz go'yo.

Men ona tili va adabiyot darsini sevaman, ammo hisob, odob, musiqa, rus tili va boshqa darslar undan qolishmaydi. Angliya yoki Amerikadan mehmonlar kelib qolsa ular bilan bimalol ingliz tilida so'zlashish maqsadida bu tilni, sharq mamlakatlaridan mehmonlar kelib qolishsa ular bilan ham bimalol so'zlashish uchun fors tilini ham o'rganayapman.

Bundan tashqari Vatanim tarixiga juda qiziqaman. Bunda mening chanqog'imni ustozim Nigora opa Xo'jayeva qondiradilar. Haqiqatdan ham sug'orib turilgan nihol unib, o'sib katta daraxtga aylanganidek, bilim olgan o'quvchilar ham kelajakda buyuk inson bo'lishi muqarrar. Men ustozim Nigora opaning mehnatlarini oqlashni o'z vazifam deb bilaman.

Zamiraxon AHROROVA,
Yunusobod tumanidagi 272-
maktabning 4- «A» sinf o'quvchisi.

XATLAR TEGIRMONI



XOQON O'ZBEGIM

Hurmatli «Tong yulduzi» gazetasining ijodkorlari!

Men gazetaning har bir sonini maroq bilan o'qib boraman. O'n yoshimdan she'rlar, hikoyalar yoza boshlaganman. «Bahor», «Atirgul» nomli va boshqa she'rlarim «Xorazm yoshlari» gazetasida bosilib chiqqan. Yangi sher'larimdan birini sizga ham yuboryapman.

*Jannatmakon, o'zi xoqon el,
So'zi asal, yuzj shodon el.*

*Intiluvchan yoshlari bisyor,
Kelajakka metin poydevor.*

*O'zbekimning qalbida g'urur,
Hur yurida zo'r davronlar surur!*



Shahnoza YUSUPOVA,
Xorazm viloyati, Urganch tumanidagi
39- o'rta maktabning 7- sinf o'quvchisi.



SHODLIGIMIZ OLAMNI TUTSIN!

majmua haqida, uning shu kundagi faoliyati haqida hikoya qilib bermoqchiman. Bu majmua Shahar Qo'shimcha ta'lim Majmuasi deb ataladi.

Har birimiz maktab fanlaridan tashqari yana nimalargadir qiziqamiz, nimalarnidir orzu qilamiz. Va shular orqali do'stlarimiz orasida obro'-e'tibor qozonishga harakat qilamiz. Bu yo'lda sizga va bizga Shahar Qo'shimcha ta'lim Majmuasi yordam beradi. Bu yerga kirib kelgan odam uning ostonasidan go'zallikka, nafosatga duch keladi.

Bu majmuada uchta bo'lim faoliyat ko'rsatadi: Xalq amaliy va tasviriy san'at

bo'limi, klublar va til to'garaklari sho'basi, badiiy-nafosat bo'limidir. Bizning majmuada naqqoshlik, milliy kashtachilik, haykaltaroshlik, tasviriy san'at, zardo'zlik to'garaklari mavjud. Bulardan tashqari, «Yosh jurnalistlar», «Ekologiya», «Yosh hamshiralar» klublari va til to'garaklari ish olib boradi.

Kuzgi ta'til munosabati bilan esa majmua xodimlari biz bolalar uchun ajoyib, ko'ngilochar tadbirlarni uyushtirdilar. Kuni kecha «Onalar va bolalar yili» munosabati bilan «Yangi avlod tanlaydi» ko'rik-tanlovi bo'lib o'tdi. «Oltin kuz» musiqiy dasturida esa ajoyib


«MUQBIL TOSHOTAR»LARGA JAZO BORMI?

Hozirgi kunda barcha transport vositalari qatori temiryo'l transportidan ham juda keng foydalanilmoqda. Ayniqsa, kundalik qatnovchi elektropoyezdlar ishchilaru talabalarning yirog'ini yaqin qilyapti.

Poyezd vagonlarida ketayotib keng dalalardan, qishloqlardan o'tayotganimizda u yerda chorva mollarini boqib yurgan bolalarga ko'zimiz tushadi. Ular vagonlardagi yo'lovchilarga qarata har xil uyatsiz va bem'ani qiliqlar qilib, o'zlari xursand bo'lishadi. Bu ham yetmagandek, poyezdlarning derazalariga tosh otishadi. Ular otgan toshlar poyezd oynalarini sindirib, yo'lovchilarga tekkanining ham guvohi bo'lganman.

Bolalarning bu qilmishlarini sho'xlik, bezorilik deb atashadi. Menga qolsa, jinoyat deb atagan bo'lardim va jinoyatlariga yarasha javob berishlarini ham istardim. Axir ular inson hayotini xavf ostida qoldirishyapti-ku! Ularga qarab o'yga tolaman: bu bolalarning farzandi nimalar bilan mashg'ul ekanligi bilan qiziqadigan ota-onalari, tarbiya, odob o'rgatuvchi o'qituvchilari bormikin? Nazarimda, hozirgi kunda ota-onalarimiz tirikchilik va boshqa yumushlar bilan ovora bo'lib, farzand tarbiyasiga biroz befarqroq bo'lib qolishyapti. Bola tarbiyasi uchun maktabni, o'qituvchilarni mas'ul deb biladigan ota-onalarimiz ham yo'q emas. Yomon xulq bilan voyaga yetayotgan bolalarga hozirdanoq bir chora topib, to'g'ri yo'lga solmasak, keyin kech bo'ladi.

Feruza OBIDOVA,
Toshkent viloyati,
Yangiyo'l tumanidagi
2- o'rta maktabning
9- sinf o'quvchisi.



shou tomoshalar o'tkazildi. Ta'til kunlarida biz yana ajoyib yozuvchi va shoirlarimiz bilan uchrashuvlar uyushtiramiz. Xalq amaliy va tasviriy san'at bo'limi xodimlari esa «Ustalarining quvnoq shaharchasi» deb nomlangan ijodiy ko'rgazma tashkil qilishadi. Bu ko'rgazma tengdoshlarimizning o'z qo'llari bilan yaratilgan san'at asarlaridan tuziladi. Unga rassomlar ham tashrif buyurishadi. Xullas, ana shunaqa gaplar. To'garak rahbarlarimiz katta mehnatlar qilib ta'til kunlarimizni va bo'sh vaqlarimizni mazmunli o'tkazishimizga ko'maklashadilar. Biz ulardan minnatdormiz.

Muqaddas SAYRAMOVA,
SHQTM «Yosh jurnalistlar»
klubi a'zosi.

Aziz va qadrlı do'stlarim! Siz do'stlaringizning qobiliyatlarini - ajoyib rasmlar chizishlarini yoki qo'g'irchoqlariga o'z qo'llari bilan ko'ylakchalar tikib berayotganliklarini yo bo'lmasa oddiy yog'ochdan ko'rkam, jozibali buyumlar yasayotganliklarini ko'rib, yoqimli qo'shiqlar kuylashini tinglab havasingiz kelgandir-a! Shular orqali o'zingizning ham orzularingiz paydo bo'lib qolgandir?!

Ha, orzuga ayb yo'q, deyilar. O'z orzularimiz yo'lida a'lo o'qishimiz, ko'p mehnat qilishimiz kerak. Ana shu mehnatlarimiz orqali esa o'z qobiliyatimizni namoyon qilamiz.

Bugun sizga orzularingizni ro'yobga chiqishiga ko'maklashuvchi ajoyib bir

Istiqlol yillarida yurtimizda ko'plab litseylar tashkil qilingani bor gap. Lekin o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini amaliy yo'nalishda namoyon etishga qaratilgan litseylar u qadar ko'p emas. Mazkur litsey ana shunday litseylar sarasiga kiradi. Litsey tashkil qilina yotganda respublikamizning turli burchaklarida istiqomat qilayotgan iqtidorli bolalarni qo'llab-quvvatlash maqsad qilib qo'yilgan edi.

Ana shu ezgu niyat qanot yozib, mazkur litseyda qisqa davrda ta'lim-tarbiya sohasida katta tajriba to'plandi. Bu tajriba hosilasi o'laroq litsey o'quvchilari shahar, respublika miqyosidagi ko'rik-tanlovlarda, fan olimpiadalarida muvaffaqiyatlarga erishib kelmoqda. Litsey o'zining 10 yillik qisqa tarixi davomida Dilfuza Shodiyorova, Avaz Berdiqulov, Shodi Otamurodov, Farida Mahkamova, Iroda Asilbekova, Shuhrat To'payev, Azizbek Turdiyev, Anvar Samadov, Nargiza Azimova, Jo'rabek Ro'zmetov singari talay iste'dodli yoshlarni tarbiyalab, vatan va xalq xizmatiga safarbar etdi.

Litseyda tahsil olgan ko'plab yoshlar hozirda jahonning qator rivojlangan davlatlarida, jumladan, AQSH, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Fransiya, Hindistondagi oliy o'quv yurtlarida o'qishmoqda. Respublika fan olimpiadalarida faxrli o'rnlarni egallab, oliy o'quv yurtlariga test sinovisiz qabul qilingan o'quvchilar ham ko'plab topiladi.

Bu yutuqlar o'z-o'zidan qo'lga kiritilgani yo'q, albatta. Bularning barchasi fidoyi murabbiylarni o'zida jamlagan

Sultonovich mazkur o'quv dargohi ochilgandan to bugungacha jamoaga rahbarlik qilib kelmoqda. O'z ishining va kasbining ustasi bo'lgan So'lmas aka 35 yillik tajribaga ega.

- *Dastlabki yillarda talay qiyinchiliklarga duch keldik, - deydi So'lmas aka. - Iqtidorli yoshlarni izlab topish, ularni bir joyga to'plash, eng muhimi,*

huquqshunoslik, ingliz tili va iqtisod, tasviriy san'at yo'nalishlari bo'yicha o'qitiladi.

Ularga 41 nafar fidoyi murabbiy ta'lim bermoqda. O'qituvchilar jamoasini oliy toifali, shuningdek, fan nomzodi, fan doktori, professor ilmiy unvonlariga ega bo'lgan murabbiylar tashkil etadi. 300 o'rinni

Yurtimiz mustaqillikka erishib, taqdirini o'z qo'lga olgan kundan boshlab barkamol avlodni voyaga yetkazish masalasiga alohida e'tibor bilan qarab kelinadi. Tarix uchun qisqa, ammo mazmunan asrlarga tatigulik o'n yil ichida ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar bunga dalildir. Respublikamizning turli shahar-qishloqlari husniga-husn qo'shib ulug'vor maqsadlar bilan ish olib borayotgan ko'plab akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, o'zbek xalqining jahondagi boshqa xalqlardan kam emasligini amalda ko'rsatayotgan yosh yigit-qizlarning muvaffaqiyati yurtimizda yoshlarga qilinayotgan g'amxo'rlikning hosilasidir. Alisher Navoiy nomidagi respublika nafis san'at litseyining tashkil topishi ham istiqol bilan bog'liq. Mazkur o'quv dargohi 1991 yil 1 sentyabrda - yurtimiz mustaqillikka erishgan kunda tashkil qilingan.

OQLANGAN ISHONCH

yotoqxona, boy kitob fondiga ega bo'lgan kutubxona, lingafon xonalari.

ularning bor iqtidorini, kuch-g'ayratini to'la namoyon etish uchun sharoit yaratib berish oson kechmadi.

Mashaqqatli mehnatimiz sabab bu sinovlarni yengib o'tdik. Litseyimiz o'quvchilari erishayotgan yutuqlarni ko'rib behad quvonamiz. Ularning shodligi bizga kuch-g'ayrat baxsh etadi.

Ha, So'lmas aka Sultonov o'z taqdirini o'quvchilar tarbiyasi bilan bog'lagan.

Litseyda ayni vaqtda 570

ISTIQLOLGA TENGDOSH DARGOH

muhimi, hech bir o'quvchi bu yerda o'zini begona his qilmaydi.

- *Litseyimizga*

bazasi yaxshilandi. O'quv jarayonida ta'limning xorijiy tajribalaridan unumli foydalanilmoqda.

- *O'qitish uslubini ijodiy lashtirish, o'quvchilar uchun nisbatan erkin va zamonaviy muhit yaratib berish uchun tinmay izlanayapmiz, - deydi ilmiy mudir Go'zal opa Ahmedova. - O'quv-uslubiy qo'llanmalar uzluksizligi, o'qituvchilar malakasini oshirib borishni doimiy ta'minlashga alohida e'tibor qaratyapmiz. Texnik jihozlarni yangilab borish, ularda ish olib borishni ilg'or talablarga muvofiqlashtirish diqqat e'tiborimizda.*

Go'zal opa o'z ishining ustasi.

Qachon qaramang, ish bilan band. Qo'li qo'lga tegmaydi. «Yozishga

arziguilik ish qila olganimiz yo'q. Hammasi hali oldinda», - deydi opa kamtarlik bilan.

Litsey direktorining ma'naviyat va ma'rifat masalalari bo'yicha o'rnbosari Arofat opa Tojixo'jayeva hamrohligida o'quv jarayonlari bilan tanishdik. O'quv xonalari yaxshi jihozlangan - keng va yorug'. Yaxshi bilim olish uchun hamma sharoit muhayyo. Bunday sharoitda tahsil olayotgan yigit-qizlarga havasingiz keladi. Burro-burro so'zlayotgan o'quvchilarni ko'rib, dilingizda buyuk kelajakka ishonch uyg'onadi.

Maqolani shu joyda tugallamoqchi edim. Lekin... Litseyimizning bir guruh o'quvchilari Hindistonda o'tgan xalqaro tasviriy san'at ko'rgazmasida «Shankar» mukofotiga sazovor bo'lganligi haqidagi xushxabar tarqaldi. Yana bir muvaffaqiyat... Yana bir mehnatning samarasi... Bu muvaffaqiyatga erishishda o'qituvchi Abdurahmon aka Nurqobilovning xizmati katta.

Yana bir gap. O'tgan yili litsey o'quvchisi, ayni vaqtda oliygohda tahsil olayotgan Nargiza To'xliyeva Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi.

Nima ham derdik, ahil dargoh muvaffaqiyatlariga ko'z tegmasin!

Shuhrat ORIF.



jamoaning mashaqqatli mehnati tufayli qo'lga kiritilgan.

Litsey direktori So'lmas aka

o'quvchi tahsil olmoqda. O'quvchilar adabiyot-jurnalistika, suxandonlik, tarix-

zamonaviy jihozlangan kompyuter va o'quv xonalari o'quvchilar xizmatida. Eng

sog'inamiz. Murabbiylarimiz bizga o'z onamizdek muomalada bo'lishadi, - deydi tasviriy san'at yo'nalishiga ixtisoslashgan 9-«V» sinf o'quvchisi Diyorjon Qo'ziboyev.

Litseyda ijodiy muhit yaxshi qaror topgan. O'quvchilar iborasi bilan aytganda, «hamma bir-biriga o'rganib qolgan».

Bugungi kunda o'quv dargohlarining nufuzi uning zamonaviy ish uslublarini, o'qitishning ilg'or talablarini nechog'lik o'zlashtira olganligi bilan ham belgilanadi. Bu hayot haqiqatini yaxshi anglagan litsey rahbariyati yangiliklarni o'quv jarayonlariga tezkor joriy etmoqda. Ana shu yo'lda litseyning moddiy-texnika

REGULAR VERBS - TO'G'RI FE'LLAR

Ingliz tilidagi fe'llar ikki guruhga bo'linadi. Ular to'g'ri va noto'g'ri fe'llardir.

Fe'llarning to'g'ri yoki noto'g'riligini ularni tuslaganda bilib olish mumkin.

To'g'ri fe'llarning o'tgan zamon shakli oxiriga har doim «ed» qo'shimchasi qo'shiladi. Masalan, inglizcha «open» - «ochmoq» to'g'ri fe'l hisoblanadi, uning o'tgan zamon shakli «opened» - «ochdi» bo'ladi.

To'g'ri fe'llarga misollar:

pick - picked	show - showed
try - tried	watch - watched
enter - entered	receive - received
end - ended	smile - smiled
die - died	laugh - laughed
kill - killed	cry - cried
ask - asked	shout - shouted

1. What is the name of the first president of the United States of America?

- A) Benjamin Franklin
- B) George Washington
- C) Thomas Jefferson
- D) Abraham Lincoln

2. This battle took place in Europe, 61,000 soldiers died on 18 June 1815, it was the last day of this battle which name was the Battle of

- A) Vienna
- B) Rome
- C) Waterloo
- D) Paris

3. 140,000 people were killed on 6 August 1945, when the American air forces dropped the atomic bomb on

- A) Tokyo
- B) Nagasaki
- C) Kyoto
- D) Hiroshima

4. Till 1924, the capital of Mongolian Republic was.....

- A) Ulan-Ude
- B) Ulan Bator
- C) Ughra
- D) Ulan Baya

5. Amir Temur began to rule the whole Movarounnahr in.....

- A) 1369
- B) 1370
- C) 1371
- D) 1372

6. What is the name of Temur's grandson who was the famous scientist, historian in the world and the governor of Samarkand? He was killed by his son.

- A) Shohruh Mirzo
- B) Mirzo Ulugbek
- C) Husein Boykaro
- D) Bobur Mirzo

7. The famous historical palace Taj Mahal in Agra, India, was built by king.....

- A) Shohjahon
- B) Bahodir Shoh Zafar
- C) Humoyun Mirzo
- D) Kemran Mirzo

8. Amir Temur had four sons, among them who was the father of Mirzo Ulugbek?

- A) Pirmuhammad
- B) Jahangir Mirzo
- C) Mironshoh
- D) Shohruh Mirzo

9. He was the main rival of Bobur Mirzo in a struggle for Movarounnahr's throne. He was from the Dashti-Qipchoqi Uzbeks. In 1510, he was killed by Irani king Ismail Safaviy. What is the name of this king?

WE LEARN ENGLISH

TO'G'RI VA NOTO'G'RI FE'LLAR REGULAR AND IRREGULAR VERBS

Gazetamizning hurmatli o'quvchilari! Ingliz tilidan beriladigan bugungi sabog'imizda «to'g'ri» va «noto'g'ri» fe'llar haqida bir oz ma'lumot berib o'tamiz. Albatta ingliz tilidan ushbu qisqagina bir darsimizda bunday katta mavzu to'g'risida to'liq mukammal ma'lumot berishning iloji yo'q. Ammo men imkoni boricha ingliz tilidagi fe'llarning bu muhim ikki turi haqida sizlarga ma'lumot berishga harakat qilaman.

Shuningdek, sahifamiz so'ngida barcha fanlar ichida eng qiziqarlisi va keraklisi bo'lgan - tarix fanidan ingliz tilida test savollari berilgan. Ularga to'g'ri javob berishga harakat qiling, bu narsa bilimingizni oshirishga ko'maklashadi.

write-wrote
think-thought
catch-caught
rise-rose
fall-fell
take-took
forget-forgot
drink-drank
loose-lost
buy-bought
shake-shook
have-had
make-made
give-gave
sit-sat

stand-stoodknow-knew
come-came
bring-brought
blow-blew
get-got
find-found
let-let
shut-shut
begin-began
lie-lay
fight-fought
read-read
hide-hid
choose-chose
put-put
ride-rode

Masalan quyidagicha:

during 1860's and was killed when he was at the theatre?

- A) Theodore Roosevelt
- B) Abraham Lincoln
- C) Jimmy Carter
- D) John Kennedy

13. Deutschland (Germany) was separated into two parts (Republics) after World War II, and when these two Republics united again?

- A) 1989

- B) 1990
- C) 1991
- D) 1988

14. He struggled for the equal rights of Black people and for a justice in the USA during sixties. Only for this he was killed by White men in 1968. What is his name?

- A) Cassius Cley
- B) Martin Luther King
- C) Luis Armstrong
- D) Stewart Collins

15. What is the name of brave Indian woman who was the prime-minister of this country in the Eighties and was killed by terrorists?

- A) Soniya Ghandi
- B) Radha Ghandi
- C) Indira Ghandi
- D) Sita Ghandi

16. He fought for the independence and freedom of India. For this he struggled against the British colony in India. He was the real patriot and hero of Indian people. His name is.....

- A) Mahatma Ghandi
- B) Rajiv Ghandi
- C) Javaharlal Nheru
- D) Atal Bhai Vajpai

17. What is the name of Afghani king who ruled Afghanistan during 1933-1973, then he was sent by force to Italy?

- A) Najibullah
- B) Muhammad Davud
- C) Muhammad Zahir Shah
- D) Muhammad Taraqqiy

18. He was the prime-minister of Israel and struggled for the peace between Palestinian and Israelian people in the Middle East. For this he was killed by Israelian terrorist on November 1995. His name is

- A) Shimon Peres
- B) Isqhaq Rabin
- C) Ariel Sharon
- D) Yakhud Barak

TARIX FANIDAN TEST SAVOLLARI



TEST QUESTIONS FROM HISTORY

- A) Abu Said
- B) Shayboniy Khan
- C) Abulghoziu Khan
- D) Sayyidulla Khan

10. Abu Ali ibn Sino was born in.....

- A) Bukhara
- B) Samarkand
- C) Khiva
- D) Tashkent

11. Alisher Navoi was a governor of for many years.

Put the right answer instead of periods.

- A) Herat
- B) Astrobod
- C) Huroson
- D) Samarkand

12. What is the name of American President which fought for Black people's rights in the USA

BEHZOD AN'ANALARINING DAVOMCHILARI

Mustaqil, ozod va hur Vatanimiz shuhratini bolalarimiz ham dunyoga yoyayotganlari bizni cheksiz quvontiradi. Yosh bilimdonlar, sportchilar, rassomlar xalqaro ko'rik tanlovlar, musobaqalarda qatnashib, g'oliblikni qo'lga kiritmoqdalar. Aql-zakovatlari, mahoratlarini namoyish qilmoqdalar. Keyingi yillarda o'zbekistonlik yosh rassomlar har yili Hindistonda o'tkaziladigan «Shankar» xalqaro bolalar rasmlari tanlovida qatnashib, sovrindor bo'lmoqdalar. Nufuzli bu tanlovni bundan yarim asr muqaddam mashhur hind rassomi Shankar Pillan boshlab bergan edi. U dunyo bolalari o'z ijodlari bilan xalqlar o'rtasida mustahkam do'stlik ko'prigi quradilar, deb umid qilgan edi. Darhaqiqat, yil sayin unda qatnashuvchilar soni oshib bormoqda. «Shankar-2000» xalqaro tanlovda O'zbekiston badiiy Akademiyasi tasviriy, amaliy san'at Respublika litsey-internati hamda A. Navoiy nomidagi Nafis Respublika san'at litseyidagi bir guruh yosh mo'yqalam ustalari qatnashib, faxrli o'rinlarni egalladilar. Tanlov laureati bo'ldilar. Yetti o'quvchi faxrli diplom va sovrin egasi bo'lishdi, to'rt o'quvchi kumush medal, ikki o'quvchi oltin medal sohibi bo'ldilar.

Yaqinda Toshkentdagi Hindiston madaniyat markazida g'oliblarning asarlari ko'rgazmasi ochildi. Ko'rgazmaning ochilishida Hindistonning Tashqi ishlar vaziri U. Abdulloh, Hindistonning O'zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi B.Mitra, O'zbekiston badiiy Akademiyasining prezidenti T. Qo'ziyev, O'zbekiston-Hindiston do'stlik jamiyatining raisi B.Mahsitov, jamoatchilik

vakillari hozir bo'lishdi. Ular bolalar chizgan rasmlarni maroq bilan ko'zdan kechirdilar.

Oliy martabali mehmon U.Abdulloh yig'ilganlarning qarsaklari ostida B.Rahmonov,

Bugunning bolasi

M. Kupriyanovalar, U.Ziyovutdinova, J.Subxonov, Z.Gismatulina, H.To'laganova, SH.Shukurovlarga sovrinlar, K.Ikromova, D.Qo'ziboyev, X.Soliqov, D.Odilbekovlarga kumush medallar, N.Ziyoxonova, A.Hamroyevlarga oltin medallarni topshirdi.

G'oliblarni tabriklab, shunday dedi: - Sizlarning ajoyib iste'dodingiz va ijodiy jo'shqinligingiz dillarni rom etadi. Bolalarning mo'yqalam yordamida dunyoni tasvirlash

Alimmambetovalarni ham samimiy qutladilar. «Shogirdim Adhamjon Hamroyevning «Shankar» xalqaro tanlovida oliy mukofotga loyiq deb topilgani tabiiy bir holdir - deydi L.A.Pavlova, - bu uning yetti yil davomida litseyda qunt bilan o'qigani va tinimsiz ijodiy izlanishining yakunidir. U g'oyat qobiliyatli va mehnatsevar bola. Uning asarlari nur bilan yo'g'rilgan ezgulikni tarannum etadi. Rang-bo'yoqlarida milliylik ufurib turadi».

Ustozning shogirdlari boshqa xalqaro tanlovlarda ham muvaffaqiyatli qatnashib kelmoqdalar. Masalan, M.Tolipova Yaponiyada o'tkazilgan bolalar rasmlari xalqaro tanlovida oliy mukofotga sazovor bo'lgan, YU. Katkova esa o'sha tanlovda faxrli birinchi o'rinni egallashga muvassar



mahoratiga tasannolar aytgini keladi. Bular mamlakatlarimiz o'rtasidagi do'stlik aloqalarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bolalikda yuksak qalbida ochilgan do'stlik chechagi bir umr yashnab turadi. Buyuk orzular hamisha yo'ldoshingiz bo'lib qolsin. O'tmishi buyuk, ajoyib an'analarga ega bo'lgan O'zbekistonning kelajagi sizlarning qo'lingizda.

Kecha qatnashchilari g'oliblar bilan bir qatorda ularning ustozlari Z.N.Zufarov, L.A. Pavlova, A. Nurqobilov, G.

bo'lgan.

Kecha qatnashchilariga Nafis san'at litseyi o'quvchilari ishtirokida mumtoz va o'zbek xalq kuylaridan konsert qo'yib berildi.

Xalqaro miqyosda bo'y ko'rsatayotgan iste'dodli yosh rassomlarimiz buyuk vatandoshimiz Kamoliddin Behzod an'analarning merosxo'ri va davomchilaridir. Ijodiy zafarlar ularga yor bo'lsin.

Mirza Anvar KARIMOV.

"MEN INSONIYLIKNI QANDAY TUSHUNAMAN?"

Aziz o'quvchilar, yodingizda bo'lsa, gazetamizning 30-sonida «MEN INSONIYLIKNI QANDAY TUSHUNAMAN?» tanlovining birinchi bosqichini o'qigan edik. Xalqaro Qizil Xoch Qo'mitasining Ma'naviy Osiyo respublikalaridagi Mintaqaviy Tanlov Nafis ta'lim dasturlari bo'limi va «Tong Yulduzi» gazetasi yuqori sinf o'quvchilarini, shu jumladan, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari talabalarini «Inson va jamiyat» kursi bo'yicha o'qish uchun o'quv qo'llanmasi asosida tashkil etilgan «MEN INSONIYLIKNI QANDAY TUSHUNAMAN?» tanlovining ikkinchi bosqichiga qatnashishga taklif qiladi. Mazkur tanlovning maqsadi - jamiyat hayotini qat'iy belgilab turuvchi, barcha davrlarda amal qilib kelingan tartib-qoidalarga rioya etish zarurligini sizning ongingizga yetkazishdir, zero, ularsiz kishilarning jamiyatda hayot kechirishi o'z ma'nosini yo'qotgan bo'lur edi.

BIRINCHI BOSQICH SAVOLLARINI YANA BIR BOR ESLATAMIZ:

1. O'zbekiston Respublikasi 1949 yilgi Jeneva Konvensiyalari va ularga Qo'shimcha bayonnomalar qachon, kim tomonidan va qayerda tuzilgan?
2. Xalqaro Qizil Xoch Qo'mitasi (XQXQ) qachon, kim tomonidan va qayerda tuzilgan?
3. Jeneva Konvensiyalari himoyasi ostida bo'lgan kishilar toifalarini sanab ko'rsating.
4. Tinchlik bo'yicha Nobel mukofotiga ilk bor kim, qachon va qanday xizmatlari uchun sazovor bo'lgan?
5. XQXQ vakolatxonalarini dunyodagi qancha mamlakatda faoliyat ko'rsatmoqda?

IKKINCHI BOSQICH SAVOLLARI:


1. Xalqaro Qizil Xoch Qo'mitasining tuzilishiga qanday hodisalar sabab bo'ldi?
2. Jeneva Konvensiyalari va Amir Temurning «Tuzuklari» o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni ko'rsating.
3. Xalqaro insonparvarlik huquqini qisqacha tavsiflang.
4. Jeneva Konvensiyalariga qo'shilishi munosabati bilan O'zbekiston o'ziga qanday majburiyatlarni qabul qildi?
5. Qizil Xoch va Qizil Yarim Oy Xalqaro Harakatining tarkibiy qismlarini ko'rsating.

1 dekabrgacha Sizning javoblaringizni kutamiz.


Ana shu ikki bosqich g'oliblarini magnitofon, pleyyer, fotoapparat va boshqa qimmatbaho sovg'alar kutmoqda!

Javoblaringizni quyidagi manzilga yuboring: 700000, Toshkent shahri, Asaka 1-tor ko'chasi, 8-uy, «TANLOVGA».


O'n bir hafta u jilmay,
Yechinishini hech bilmay.
To'n kiyar, qavat-qavat,
Lek boshi bo'lur savat.



Otchamning beli qilday,
Lek boshi og'ir jinday.
O'zi yaxshi ishlaydi,
Ahil bo'lib qishlaydi.



Yalang'och o'zi,
Bor bitta ko'zi.
Yilt etib kun tun,
Tikar emish to'n.



TOPISHIMOQLAR



Mo'ylovdor deysan uni,
Qishga mos, ola juni.
Qoplondek yurib turar,
Kuchugingga do'q urar.

Ustozlaringiz ijodi

Ignasining ko'zi yo'q,
Elda gapu so'zi yo'q.
Ko'rinmay kunduz kuni,
To'rt oyoq bo'lur tuni.



Uyum-uyum tog'i bor,
Urug'ida yog'i bor.
O'zi qordek porlaydi,
Terib ol deb chorlaydi.

Chori Bobomurod ANGORIY,
Surxondaryo viloyati.

Yaqinda Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi GEF agentligi, Xalq ta'limi vazirligi va «Ma'rifat» gazetasi hamkorligida «Men - Otam - Bobom - suvning ahamiyati haqida» mavzusida o'tkazilgan insholar tanlovining eng vakuniy bosqichi bo'lib o'tdi. Unda 42 nafar ishtirokchi, ularning muallimlari, ota-onalar qatnashdi.

GEF Agentligining texnik direktori U.Bo'ronov 3 ta birinchi o'ringa 30 ming so'mdan, 3 ta ikkinchi o'ringa 20 ming so'mdan, qolgan ishtirokchilarga esdalik sovg'alari, pul mukofotlari topshirdi.

Tadbir davomida ommaviy axborot vositalari xodimlari bilan davra suhbatlari o'tkazildi. Ushbu davra suhbatida burro javoblari, tesha tegmagan to'rtlik, maqollari bilan qatnashgan kichik bir o'g'lon e'tiborimizni tortdi. Hatto uning so'zlaridan ta'sirlangan Agentlik xodimi O.Bozov qo'lidagi soatini yechib, uning qo'liga taqib qo'ydi.

Tadbirdan so'ng yuqori sinf o'quvchilari orasida eng yaxshi insho yozib, o'tkir fikrlari bilan ko'pchilikning e'tiborini o'ziga tortgan andijonlik Ixtiyor bilan suhbatlashdim:


- Ixtiyorjon, qayerda o'qiysiz?
- Asaka tumanidagi 46- maktabning 8- «G» sinfida o'qiyman.
- Yo'g'-ey, kichkinaga o'xshaysiz-ku! Yoki bo'yingiz o'smay qoldimi?
- Bo'yim risoladagidek. Yoshim endi 11 da.
- Qanday qilib 8-sinfda o'qiyapsiz?
- 2- sinfdan 5- sinfga ko'chganman. Otam Baxtiyor Qo'ldoshev malaka oshirish institutida ishlaydilar. Onam ona tili va adabiyot fanidan dars beradilar. 97 yoshli Mahmudjon buvam, 87 yoshli Maqsudaxon buvijonim o'qish va tarbiyamizni doim kuzatib, surishtirib yuradilar.
- Demak, faqat o'qir ekansiz-da!
- O'qishdan tashqari rasm chizaman, sport bilan shug'ullanaman, futbol jonu tanim. Badiiy kitoblarni ko'p o'qiyman. Hikoyalar yozaman.
- Qaysi kitoblarni o'qigansiz?

- «Boshsiz chavandoz», «Kapitan Grant bolalari», «15 yoshli kapitan», «G'aroyib bolalar», «Qaysar bolaning hayoti», «Sariq devni minib» kitoblarini ko'p marta o'qiganman.

- Sarguzasht asarlarga qiziqar ekansiz. Mumtoz adabiyotga ham qiziqasizmi?

- Uyimizda kitoblar ko'p. Navoiy asarlari ham. Ulardan yod olganman. (Ixtiyorjon Navoiy ruboiylaridan yodlab berdi. Aytgancha, tadbirda A.Oripovning «O'zbekman»

BIR TOMCHI SUV



she'rini shunday ifodali yod oldiki, katta zal ovozidan jaranglab ketdi.)

- Ixtiyorjon, maktabingizda to'garaklar bormi?

- Bor, o'zim «Mezon» to'garagiga qatnashaman.

- Hayotda kimga o'xshagingiz keladi?

- «15 yoshli kapitan»dagi Diksenga o'xshagim keladi.

Uning dengizdagi jasurligiga havas qilaman. Enagasiz, axlatxonada qolib ketsa ham qo'rqmaydi, umidsizlikka tushmaydi.

- Siz inshoni yozish jarayonida nimalardan foydalandingiz, kimdan yordam oldingiz?

- Buvam va buvimdan suv haqidagi maqol, hikmatli so'zlarni bilib oldim. Enam menga Katta Farg'ona kanali qurilishi haqida gapirib berdilar. Ularning hikoya qilishlaricha, 1939 yil hamma kanal qurilishiga borgan ekan. Uylaridan ketmon, zambil, paqir olib arava karvon bo'lib ketishgan ekan. Hoshim Qoraning katta o'g'li shu vaqtda kasal bo'lib yotgan ekan. Hoshim akaga «o'g'ling kasal, sen borma, qolaver», deyishsa ham, oriyati kuchli emasmi, «hamma jonini jabborga berib kanal qurilishida ishlasa, men bu yerda o'g'limning ko'ziga qarab

o'tiramanmi», deb kasal bolasiyu kampirini tashlab, o'zi 3 yashar bolasigacha olib kanal qurilishiga ketgan ekan. Ikki kundan so'ng o'g'li vafot etadi.

Suv kelgan kuni-chi - davom etadi buvim, - Hoshim qora qabristonga borib nuqul «Suv keldi, bola-a-a-am, suv keldi-i-i» deb baqiraveradi. 3-4 erkak zo'rg'a yupatib, qabristondan olib kelishadi. Suv juda qimmatga tushgan.

- Suv haqidagi to'rtlikni yana bir marta aytib bering-chi!

- Non gadosi bo'lganmiz,

Pul gadosi bo'lganmiz.

Suv gadosi bo'lishdan

O'zing asra, xudoyim.

- «Tong yulduzi» muxlislariga, tengdoshlaringizga nima deyishni istaysiz?

- Biznikiga amerikalik mehmonlar kelishgandi, dadamning ko'chadan chelakda suv ko'tarib kirganlarini ko'rib amerikalik Ged amakim, Elen xolam «Bir chelak suvni necha pulga sotib oldingiz?» deb so'rashdi.

Demak, ayrim davlatlarda suvni pulga sotishar ekan-da! Ular bir tomchi suvni ham bizdan ko'ra ko'proq qadrlashadi. Axir, Orol quriyapti, unga yordam kerak. Qishloqlarda ariq suvini ichishadi, ariqlarni toza saqlaylik. Vodoprovod jo'mraklaridan suv oqib yotganini ko'rsak, to'xtataylik. Axir, bir tomchi suv bir dona giyohning ko'karib ketishi uchun kifoya qiladi-ku!

Ixtiyorjon bilan uzoq suhbatlashdik. Uning aqli, kuyunchakligi, bilimdonligi yana bir O'zbekiston o'g'loni kamolga yetishayotganidan dalolatdir.

Bolajonlar, siz suvni tejayapsizmi? Orol taqdiridan xabardormisiz? Nima qilsak aziz ne'mat - suvga munosabat o'zgaradi? Tarbiyaviy soatlarda suvning ahamiyati haqida gapirilganmi? Bizga shular haqida yozib yuboring.

Suhbatdosh Mahmuda VALIYEVA, Insholar tanlovi hay'ati a'zosi, Yunusobod tumanidagi 274- maktab o'qituvchisi.

TABARRUK ZOT

Bunday tabarruk zot yana qayda bor, Farzand uchun qilar jonini fido. Gar betob yotsa ham bemador, Dilbandin iqbolin o'ylar avvalo.

Ona bu, onajon, qanchalar aziz, Osmonda to'lin oy kabi oydin ruh. Uning mehri kabi beg'ubor laziz, Farog'at topilmas, topilmas shukuh.

Ona, poyingizga borliq olamning, Go'zal tilaklari guldasta bo'lsin. Sizning baxtingizni ko'rib, osmonda, Quyoshning yuragi havasga to'lsin.

USTOZ

Dunyoda bir zot bor dili beg'ubor, Barcha fazilatlar unda sarafroz. Yuzi kulgan quyosh, mehri-chi bahor, Munis va dilbar shaxs, muhtaram ustoz.

Ustoz ma'rifatning bunyodkoridir, Shogirdlari uchun doim parvona. Ustoz yurak qasrim zo'r me'moridir, Ezgulik jarchisi tanho, yagona.



SHIRIN KALOM AYTING

Inson tanasi gar shikastlansa ham Vaqt o'tgach sezilmay ketadi bitib. Va lekin qalbida cho'g' olsa alam, O'chira olmaysiz hatto suv sepib.

Shu sabab qalblarga yetkazmang shikast, Shirin kalom ayting insonga faqat. Dunyoda hech narsa ustun bo'lolmas. Odamdan qoladi mehru-muhabbat.



KAPALAK

Nogoh ko'zim tushdi gul uzra zarhal, Nafis qanot qoqqan sho'x kapalakka. Har ikki qanoti shunchalar go'zal, Uchishga shaylanar moviy falakka.

Garchi uning umri shunchalar qisqa, Lekin u hayotning qadriga yetar. Shu qisqa umrida olamni quchib, Go'zallik tuyg'usin samoga eltir.

Dunyoda inson his tuyg'ularidek rangin va betakror, murakkab va ayni paytda jozibali qadriyat topilmaydi. Odam bolasi borki, borliqning barcha ne'matlaridan ana shu his qilish, tuyish, idrok etish kabi xususiyatlari orqali bahra oladi. Insonning o'z tuyg'ularini namoyon etishi borasida unga iste'dodi yordamga keladi. Kishi qanchalar tuyg'ularga boy, ta'sirchan bo'lsa, tabiatan uning iste'dodi san'at turlari, aytaylik: tasviriy san'at, musiqa, qo'shiqchilik yoxud so'z san'ati-adabiyotga moyil tarzda shakllanadi.

She'riyatni biz odatda inson his-tuyg'ularining dil izhori va iztiroblarining ko'zgusi, deymiz. Biroq she'r nafaqat tuyg'ular ifodasi, balki ayni paytda tafakkur mahsuli hamdir.

Bugun Sizlarga o'z she'rlarini taqdim etayotgan ijodkor tengdoshingiz-

Shayxontohur tumanidagi 320-maktabning 9-sinf o'quvchisi Muqaddasxon G'aynazarova. Lekin uning she'rlarini o'qirkansiz, beixtiyor, bu iste'dod sohibasining maktab yoshida ekanligini unutib qo'yasiz. Boisi uning she'rlarida nafaqat chiroyli jumla va iboralar, o'xshatish va tashbehtar, balki o'ziga xos falsafiy fikr, muayyan shaxs nigohi, shaxsiy Meni aks etadi. Ijodkor uchun esa bu juda qimmatli va umidbaxsh fazilat.

Men yosh shoiramiz Muqaddasxonni adabiyotdagi ilk qadamlari bilan qutlab, kelgusida uning bundan-da go'zal va purma'no she'rlar yaratishini tilab qolaman.

Muhiddin OMON, shoir, O'zbekiston Yozuvchilari uyushmasining a'zosi.



Insoniyat kamolotga intiladi. Yangi avlodni o'zidan ko'ra komil inson bo'lishiga harakat qiladi. O'zining yoshlik davrida esa inson kuch-g'ayratlarini ayamaydi. Endigina qadam tashlashni o'rgangan bola yurishdan charchamaganidek ba'zi yoshlar ham bilim olishdan, kelajakka intilib nimanidir orzu qilib yashashdan to'ymaydi. Bu yoshda insonda shunday bir go'zal, o'zgacha g'oyalar tug'iladiki, kezi kelib bu g'oyalar uni ko'klarga ko'tarishi hech gap emas.

Aziz bolajonlar! Bugun biz sizga tanishtirmoqchi bo'lgan tengdoshingiz G'ijduvondagi 62- iqtidorli bolalar maktab internatining 6- sinf o'quvchisi

markaziy kasalxonasida shifokor bo'lib ishlaydilar. Farzandlari kamoli va yutug'i uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berishga tayyordirlar.

- Said Rahmonov rahbarlik qilayotgan 62- iqtidorli bolalar maktab-internatida Nizomjonga o'xshash bolalar talaygina, - deydi biz bilan suhbatda G'ijduvon tuman Xalq ta'limi bo'limi mudiri o'rinbosari Gulchehra opa Boltayeva. - Bu maktabda nafaqat Buxoro viloyatidan, balki Respublikamizning turli viloyatlaridan kelgan o'quvchilar ta'lim-



MUSTAQILLIK TENGDOSHI - STIPENDIAT

Nizomjon Hamroyevdir. Nizomjon 10 yoshli bola bo'lishiga qaramay hozirgi kunda o'z tengqurlaridan ancha oldinda. U 1997-98 o'quv yilida G'ijduvon shahrida joylashgan Ulug'bek nomli 1- son o'rta maktabning 1- sinfiga o'qishga qabul qilingan edi. Nizomjon o'ta tirishqoqligi tufayli 1998-99 o'quv yilida ikki sinfni tugatib 3- sinfga sakratildi. Bir yil o'tib esa tumandagi 62- iqtidorli bolalar maktab-internatining 5- sinfiga qabul qilindi. U o'zining o'ta qobiliyatligi, zehni o'tkirligi bilan tengdoshlaridan ajralib turadi. Sevimli fani matematika, badiiy adabiyot va o'qish jonu dili. Fransuz tilida erkin so'zlasha oladi. Kompyuterda mustaqil ishlab o'z bilimlarini mustahkamlaydi.

Nizomjonning bunday yutuqlarga erishishiga avvalambor uning ota-onasi, qolaversa, o'z bilimlarini ayamaydigan mehridaryo ustozlarining hissasi kattadir. U oiladagi uchinchi farzand. Uning ota-onasi tuman

tarbiya olishadi. Ular uchun barcha shart-sharoitlar, shinamgina yotoqxona, texnika vositalari va ko'rgazmali qurollar bilan jihozlangan o'quv xonalari mavjud. Bu maktab «Yilning eng namunali maktabi» ko'rik-tanlovida Buxoro viloyati bo'yicha faxrli birinchi o'rinni egalladi. Shu maktabning faol o'quvchilaridan biri Nizomjon esa hozirgi kunda viloyat hokimi stipendiyasini olmoqda.

Ayni paytda Nizomjon Hamroyev topshiriqlar olib, o'z ustida mustaqil ishlamoqda. Ilm o'rganishdan sira charchamaydigan stipendiat yana bir sinf oldinga o'tish arafasida turibdi. Kelajakka intilib, Mustaqil O'zbekistonimizning rivojiga o'z hissasini qo'shishga oshiqayotgan ulkan orzu egasiga biz ham omadlar tilab qolamiz.

Ozoda MUHAMMEDOVA.

NISHOLDA

(Qo'shiq)

Har yil ro'zada,
Bitta ko'zada,
Yeymiz nisholda,
Mazali juda.
Oh nisholda, oh-oh nisholda.
Hademay hayit,
Kiyinib bashang.
Do'stu yoronlar,
O'yinga tashang.
Oh nisholda, oh-oh nisholda.
Shodlanib bobom,
Deydilar yashang.
Bir burda nonni,
Hallolab oshang.
Oh- nisholda, oh-oh nisholda

VATAN

Vatanimning quyoshi,
Oh tanimga yoqadi.
Muloyim keksa yoshi,
Doim kulib boqadi.

Bo'ldim uzoq Sharqida,
Amirqoda G'arbida.
Lekin Vatan bittadir,
O'zbeklarning qalbida.

Abdusamat YUNUSOV,
Zangiota tumanidagi
22- maktab o'qituvchisi.

Shanba kuni edi, ertalab soat yetti. Amerikaning kichkina bir shaharchasi yaqinidagi ochiq maydonda yetti va o'n ikki yoshli ikki bola turardi. Ular shu kuni shaharga sirk kelishidan xabardor edilar. Biroq sirkdan haligacha darak yo'q edi. Katta ochiq maydonda na chodirlarning, na bayroqlar va na hayvonlarning qorasi ko'rinardi. Hali vaqt erta edi. Ikki boladan biri so'radi:

- Eddi, sirk bugun kelmay qolsa-ya?

Uning akasi unga javoban dedi:

- Hamma bugun keladi, deb aytayapti. Bo'lmag'ur gaplarni qo'ysang-chi, Alan. Ke, yaxshisi o'ynaymiz, shunda vaqt tez o'tib ketadi. Ular maysalar ustida o'tirib, o'ynay boshlashdi.

Eddi bilan Alan juda nimjon va ozg'in edi. Ularning otasi yo'q, onasi esa zo'rg'a tirikchilik o'tkazardi. Ular ko'pincha ovqatsiz qolib ketishardi.

Bolalar sirk daragini eshitishlari zahoti, onalari oldiga borib, unga bu haqda aytishdi. Ona o'g'illariga qarata shunday dedi:

- Ming afsuski, bolajonlarim, hozir mendapul yo'q. Sizlarga chipta olib berishga qurbim yetmaydi.

Bolalar nima qilarlarini bilmay tashvishga tushdilar. Negaki, sirkni ko'rish istagi ularga tinchlik bermasdi.

Shunda bir bola Eddiga chipta olish yo'lini o'rgatdi. «Sirk ishchilarining oldiga borib, ularning yumushlariga qarashgin, - dedi bola. - U yerda tomosha ko'rsatishdan oldin ishlar

juda ko'p bo'ladi, ular o'sha ishlarga yordamlashganlarga tekinga chipta berishadi».

Eddi bilan Alan borib, sirk ishchilariga qarashishga kelishib olishdi. Shu boisdan ular o'sha shanba kuni ertalab soat yettida maydonda hozir bo'lishgandi.

Ular uzoq kutishdi: soat sakkiz ham bo'ldi, to'qqiz ham va nihoyat o'n ham. Asta-sekin maydonga boshqa bolalar ham kela boshlashdi. Ular

ham ishlab, tomoshaga chipta olish niyatida edilar. Tez orada maydonga saksonga yaqin bola yig'ildi.

Va nihoyat, sirk ham keldi. Qilinadigan ishlar to'lib yotardi. Har bir bolaga, hattoki eng yosh, eng kichkina bo'lgan Alanga ham ish topildi. Bolalar chaqqonlik bilan ishlay boshlashdi. Eddi, Alan va yana bir qancha bolalar katta chodirni o'rnatishdi va stullarni tashishda yordam berishdi. Ularning birdan-bir istagi - chipta olib tomoshani ko'rish edi. Lekin ko'p o'tmay, ular

charchab qolishdi. Ish juda og'ir edi, ularning dam olishlari uchun esa fursat bo'lmadi. Ular qarashayotgan sirk ishchisi bir zum ham ishini to'xtatay demasdi. Alan tomosha haqida o'y surar va bu unga biroz bo'lsa-da, madad berardi. U o'zicha shunday xayol surardi: «Tomoshada fillar ham bo'ladi. Qiziqchilar ham chiqadi. Ular biram kulgili bo'lishadi-ki! Ularning gapidan, hamma mazza qilib

kuladi». Lekin bir ozdan so'ng u shunday holdan toydiki, o'ylashga ham majoli qolmadi.

-Mana endi, bolalar, ish tamom. Borib, chiptalaringni olaveringlar, - dedi sirk ishchisi. Bu paytga kelib soat beshdan ham oshgan edi. Eddi va Alan ozroq sovuq suv ichishdi-da, bilel olgani oshiqishdi. Ular sovg'otgan, ochiqqan, ham juda toliqishgandi. Chiptalarini olishgach, ular katta chodirga kirishdi. Chodirning

ichi chiroyli va issiq edi. Bolalar o'z joylariga kelib o'tirdilar. Mana endi ularning bemalol dam olishlari mumkin edi. Qilinadigan ishning o'zi ham qolmagandi: chodirlar qurib bo'lingan, stullar joy joyiga qo'yilgan edi.

A x i y r i

tomosha ham boshlandi. Judayam ajoyib tomosha bo'ldi. Unda sherlar ham chiqdi, fillar ham. Qiziqchilarning chiqishi maroqli bo'ldi, hamma miriqib kuldi. Ammo aka-ukaga bularning

ALBERT MALS

(1908)

(Amerika yozuvchisi)



birortasini ko'rish ham nasib qilmadi. Charchoqning zo'ridan ular dong qotib uxlab qolishgandi. Tomoshaning oxirigacha ham ular uyg'onishmadi.

Tomosha tugab, qarsaklar chalina boshlangandagina Eddi va Alan ko'zlarini ochishdi. Uyga tarqaladigan vaqt bo'lgandi. Yo'lda ketisharkan, bolalar yig'idan o'zlarini tiyolmadilar, lekin ularning nolasini hech kim eshitmadi.

«Turon» kutubxonasining
bibliografi Feruza NURIDDINOVA
ingliz tilidan tarjima qildi.

SIRK SHAHARGA KELADI
(Hikoya)



Yurtimizda saxovatli oltin kuz hukmron. Uning tarovatidan, oltin rangda tovlanuvchi dov-daraxtlarning yaproqlari-yu shivalab yog'ayotgan iliqqina yomg'iridan zavqlanmay, ilhomlanib qo'lsa qalam olmay bo'ladimi, axir?! «Istiqloq umidlari» to'garagimizning navbatdagi mashg'ulotini aynan ana shu ilhomboxsh faslga bag'ishladik.

Kimdir o'zi vozean she'rini, kimdir lavhasini o'qidi. Yana kimdir kuz manzaralarini mo'yqalam orqali ifoda etishga harakat qildi. Tenedoshlaringizning kuzdan ilhomlanib bitgan ash'orlari bilan siz ham tanishing.

BO'LAJAK XIRMONGA ZAMIN

O'tib ketdi bir zumda yoz kunlari ham, Kuzning kelganidan dalolat shu dam. Fasllar almashib, ketib borarkan, Kunlar ham sezdirmay o'tib borarkan. Daraxt yaproqlari oltinrang bo'lar, Bog'bon bobo xirmoni hosilga to'lar. Bilsangiz, kuzda ham go'zal har nahor, Bizlarga tuyular go'yoki bahor. Dalalardan hosil yig'ib olinar, Bo'lajak xirmonga zamin solinar.

D.ERKINOVA,
Toshkent shahar,
Shayxontohur tumanidagi
45-maktabning 5-sinf o'quvchisi.

OLTIN KUZ NE'MATLARI

Oltin kuz ziynatlari,
Oq oltin - paxtalari,
Behi-yu olmalari,
Tabiat ne'matlari.

Go'zallik savlatlari,
Saxiylik, himmatlari,
To'kinlik niyatlari
Jamiyat ne'matlari.

Nargiza MUHITDINOVA,
Toshkentdagi 116 - maktabning
5 - sinf o'quvchisi.

KO'MAKDOSH FASL

Yaproqlar sarg'ayib kuz keldi yana,
Saratoning otash doshqozonida.
Yurtim ne'matlari yetildi mana,
Ko'zlar quvnaq uni ko'rgan onida.

Namchil shabbodalar yugurib yelib.
Yomg'ir yog'ishidan berarlar darak,
Ko'maklashmoq uchun
bobodehqonga,
Yordamga oshiqar hattoki kuzak.

Nilufar MO'MINOVA,
Yunusobod tumanidagi
272- maktabning 6-sinf o'quvchisi.

XAZON YAPROQLAR

Mana, o'lkamizga kuz ham o'z hukmini o'tkazishga ulgurdi. Ob-havoning turlanib-tuslanishi, daraxtlarning erinchoqlik bilan oltinrang barglarini to'kishi bu faslga o'zgacha joziba beradi. Yomg'irning shitirlashiga monand ovoz chiqarayotgan xazonlarni asta bosib o'tar ekansiz, kuzning o'zgacha tarovatini yana bir bor his qilassiz. «... har faslning o'z fazilati» degandek, bu faslning ham o'z xislati, jozibas bor.

Xazonrezgi bog'larga boqib, ko'nglimdan bir o'tinch kechadi: hayotimiz go'zal va serma'no o'tsin. Umrimizning hech bir kuni kuzga, xazon yaproqlarga o'xshamasin...

Ma'suda IRISNAZAROVA,
Toshkent shahar,
Akmal Ikromov tumani.

Har kimning tabiati turlicha: kimgadir bahor, kimgadir yoz yoqadi. Yana kimdir kumush qishni xush ko'radi. Menga esa kuz fasli juda yoqadi... Bu faslni mo'l-ko'chilik, to'kin-sochinlik fasli deb bilaman...

Kuzni hech kuzatganmisiz? Dalalarda chamandek ochilgan oppoq paxtalarni, ishkamlardan «mo'ralab turgan» oltindek uzumlarni, bog'larda g'arq pishgan mevalarni, sarg'ish, qizg'ish tusdagi daraxt yaproqlarining

o'ynoqlab, ohista yerga to'kilishini kuzatib, bir olam zavq olaman...

Ana, shivalab yomg'ir yog'ayapti. Yomg'ir emas, rizq-ro'z, kelasi yilgi hosilimizga zamin yog'ayapti. Yog'ayotgan yomg'irdan, kuzning saxovatidan shodlangan dalalar odamlarga nafim tegdi-ku, deb yengil tin olyapti.

Dilnoza PO'LATOVA,
Toshkent shahridagi
273 - litsey maktab o'quvchisi.

«BOG'LARDA ISH QIZG'IN»



Shayxontohur tumanidagi 169- maktabning 5- sinf o'quvchisi Zulfiya EGAMBERDIYEVA chizgan surat.

SAXOVAT TUYAR

Oqshom tuynugidan mo'ralab bulut, Kuzning kelganidan dalolat berar. Oltin libos kiygan chamanzor bog'lar, Kuzning chiroyiga ko'rk bo'lib turar.

Quyoshning yuzini goh bulut qoplab, - Hosilni yig'ing, -deb shoshirib qo'yar. Bolu sharbat to'plab turli mevalar, Inson mehnatidan saxovat tuyar.

Z.AHROROVA,
272- maktabning 4- sinf o'quvchisi.

KUZ YUMUSHLARI



Akmal Ikromov tumanidagi 106-maktabning 1- sinf o'quvchisi Dilnoza HIKMATJONOVA chizgan surat.

XOTIROFINI UVG'OFAR KUZ BU...

Har gal kuz kelganda buvijonimning, xotirotlarga beriladigan, ushalmagan orzu-armonlarni yodga soladigan fasldir kuz, degan gaplarini eslayman.

Darhaqiqat, oltin kuzning ajib bir siru sinoati bordek. Kuz yomg'irining tomchilarini insonning ko'z yoshlariga qiyoslagim keladi. Oltinrang shohona libosga burkangan daraxtlar asta-sekinlik bilan zalvorli to'nlarini yechayotgandek. To'p-to'p bulutlarni aytmayisizmi, quyoshning nurli chehrasini to'sib, ranjitib qo'yayotgandek, go'yo. Kimga qanaqa bilmadimu mening nazarimda kuz g'amgin xotiralarni, ayriliqlarni yodga soladigan, xo'rsiniqlar fasliga o'xshaydi...

Samira MIRZAMUHAMEDOVA,
Toshkent Pedagogika kolleji talabasi.

O'zbekiston bolalari
va o'smirlarining
gazetasi

Muassislar:
**O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
DAVLAT MATBUOT
QO'MITASI,
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI,
«KAMOLOT»
YOSHLAR
IJTIMOIY
HARAKATI,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» XAYRIYA
JAMG'ARMASI**

BOSH MUHARRIR:
Umida ABDUAZIMOVA
TAHRIR HAY'ATI:
Shuhrat AHMEDOV,
Jamoliddin FOZILOV,
Oynisa
MUSURMONOVA,
Komil YUSUPOV,
Mukarrama
MURODOVA,
Sunnatilla QO'ZIYEV,
Ergashvoy SARIQOV.

Noshir
«Ijod dunyosi»
nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi kompyuter
bo'limida terib
sahifalandi.
Hajmi A-3, 2 bosma
taboq.
«Sharq» nashriyot-
matbaa aksiyadorlik
kompaniyasida 58.519
nusxada ofset usulida
bosildi.
Korxona manzili:
«Buyuk Turon»
ko'chasi, 41.
Buyurtma № F-3092

Gazetani
Muhabbat
MAHSUDOVA
sahifaladi.
Naybatchi:
Muharrama
PIRMATOVA

Ro'yxatdan o'tish
tartibi № 000137
Manzili: 700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi,
30-uy.

Tel: 144-62-34.
144-63-08